



O'ZBEK FRAZEOLOGIK TIZIMIDA "OR-NOMUS" KONSEPTINING IFODALANISHI

Yuldosheva Guli Xayrulla qizi

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
o'qituvchisi*

+998977194224 yuldoshevaguli@gmail.com

Abstract: This article examines the ways in which the concept of "or-nomus" (honor and dignity) is represented in the phraseological system of the Uzbek language from linguocultural and semantic perspectives. Throughout the article, phraseological units that reflect the concept of honor and dignity are identified, and their semantic groupings, figurative characteristics, and national-cultural content are analyzed. It is demonstrated that in phraseological expressions the concept of or-nomus is conveyed through such semantic components as shame, honor, conscience, and moral responsibility. The findings of the study may serve as an important theoretical resource for academic research in the fields of conceptology, phraseology, and linguocultural studies.

Keywords: concept, phraseological system, phraseme, sema, lexeme, language units, phraseological unit.

Аннотация: В данной статье с лингвокультурной и семантической точек зрения анализируются способы выражения концепта «ор-номус» (честь и достоинство) во фразеологической системе узбекского языка. В ходе исследования выявляются фразеологические единицы, отражающие понятие чести и достоинства, раскрываются их семантические группы, образные особенности и национально-культурное содержание. Показано, что в фразеологизмах концепт «ор-номус» выражается через такие семантические компоненты, как стыд, честь, совесть и моральная ответственность. Результаты исследования могут служить важным теоретическим источником для научных изысканий в области концептологии, фразеологии и лингвокультурологии.

Ключевые слова: концепт, фразеологическая система, фразема, сема, лексема, языковые единицы, фразеологическая единица.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilining frazeologik tizimida "or-nomus" konseptining ifodalanish usullari lingvomadaniy va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Maqola davomida or-nomus tushunchasini aks ettiruvchi frazeologik birliklar aniqlanib, ularning ma'no guruhlari, obrazlilik xususiyatlari hamda milliy-madaniy mazmuni ochib beriladi. Frazeologizmlarda or-nomus konseptining uyat, sha'n, vijdon va axloqiy mas'uliyat kabi semantik komponentlar orqali ifodalanishi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari konseptologiya, frazeologiya va

lingvomadaniyatshunoslik sohalarida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy manba bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: konsept, frazeologik tizim, frazema, sema, leksema, til birliklari, frazeologik birlik.

Tilshunoslikda konsept kategoriyasining turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular kelib chiqishi, ifoda maqsadi, tipologiyasi, shakllanishi, milliy-madaniyatlarga bog'liqligi jihatlaridan o'zaro farqlanadi. O'zbek tilida "or-nomus" konseptining turli shakllari va ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularning ifodalanishi leksik birliklardan tortib frazeologik birliklarda ham ifodalanadi. "Or-nomus" so'zi o'zbek tilida chuqur ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan tushuncha bo'lib, u inson sha'ni, vijdoni, axloqiy pokligi bilan chambarchas bog'langan. Shu bois uning sinonimlari ham asosan ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi birliklardir. "Or-nomus"ning sinonimik qatori ko'plab axloqiy, ma'naviy va sotsiokulturologik tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ammo ular orasida "uyat", "iffat", "vijdon", "sha'n" kabi so'zlar semantik jihatdan eng yaqin hisoblanadi. Til tizimida bu konsept sinonimik birliklar orqali ham ifodasini topadi[4]. **Sinonimlar** nafaqat ma'nodoshlikni ta'minlaydi, balki **nutqni ixcham va ravon tuzishda, talaffuzni qulaylashtirishda** ham muhim rol o'ynaydi. Shu jarayonda **juft leksemalar** "or-nomus", "baxt-saodat", "vijdon-g'urur" kabi birikmalar shakllanadi. Ularning har biri ma'no jihatidan bir-birini to'ldirib, axloqiy-ruhiy konseptlarning obrazli va emotsional ifodasini kuchaytiradi.

Alisher Navoiy asarlarida "or-nomus" birligi o'rnida ko'pincha "uyat" leksemasi qo'llanadi. Shoir "uyat"ni faqat axloqiy me'yor emas, balki **go'zallikning eng nozik hissiy ifodasi, nazokat va iffatning yuksak timsoli** sifatida talqin qiladi. Navoiy uchun "uyat" ayolning latofati, insonning ichki nozikligi va ma'naviy pokligini ifodalovchi estetik kategoriya hisoblanadi. Shu jihatdan "uyat" konsepti Navoiy ijodida "or-nomus" konseptining hissiy-estetik ko'rinishiga aylanadi. Shu bois, Navoiy "andisha" yoki "or-nomus" kabi og'ir ijtimoiy tushunchalarni emas, balki "uyat"ning nafis estetik shaklini tanlaydi. Bu tanlov uning badiiy didi, falsafiy tafakkuri va til sezgisining yuksak darajasini ko'rsatadi.

*"Gulga farxunda jamolingdin uyat,
Sarvg'a toza niholingdin uyat.
Sabzai ravzag'a xattingdin rashk,
Mardumi diydag'a xolingdin uyat.
Yangi oy nega nazardin yoshunur,
Bo'lmasa anga hilolingdin uyat?!"[5]*

Siyosatshunos olim T.Alimardonov adolat tushunchasiga ta'rif berib, uni shunday izohlaydi: - "Adolat tushunchasi oriyat, uyat, or-nomus,, qadr qimmat, sadoqat va yana bir qancha shu kabi falsafiy qadriyatlarni qamrab oladi. U odamlarni turli g'ayriaxloqiy harakatlardan saqlanishiga, jamiyatni ma'lum qoidalar asosida

birlashishiga undaydigan ma'naviy tushunchadir[1]. Olimning bu fikri "adolat" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy va axloqiy mohiyatini kengroq yoritadi. Olimning ta'kidlashicha, *adolat* faqat huquqiy yoki siyosiy kategoriya emas, balki inson ruhiyatida, axloqiy ongida chuqur ildiz otgan ma'naviy konseptdir. U bu tushunchani "oriyat, uyat, or-nomus, qadr-qimmat, sadoqat" kabi leksemalar bilan qamrab oladi.

Tilning lug'aviy boyligi va frazeologik qatlamlari xalq tafakkuri, milliy qadriyatlar hamda ijtimoiy munosabatlarning eng barqaror ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklar til tizimida shunchaki turg'un shakl sifatida emas, balki xalqning axloqiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan **lingvokulturemalar** sifatida faoliyat ko'rsatadi. Shu jihatdan "or-nomus" konsepti o'zbek tilidagi frazeologik tizimda alohida semantik va struktur o'ringa ega bo'lgan tushuncha sifatida diqqatga sazovordir.

Tilning lug'at sathidagi frazeologik qatlamida "or-nomus" mazmunini ifodalovchi ko'plab iboralar uchraydi. Masalan, "*origa teginmoq*", "*nomusini yo'qotmoq*", "*ori baland*", "*nomusini saqlamoq*", "*origa olmoq*" kabi frazeologizmlar faqat so'zlarning oddiy ma'nosidan kelib chiqadigan mazmunni emas, balki milliy axloqiy qadriyatlarni, shaxsiy sha'n va e'tiqod mezonlarini ifodalaydi.

Bunday frazeologik birliklarda ma'no yaxlitligi va obrazlilik o'zaro uyg'unlashgan bo'lib, "or-nomus" konseptining semantik doirasini kengaytiradi. Bu iboralar tarkibidagi so'zlar alohida holatda neytral ma'noga ega bo'lsa-da, turg'un shaklda qo'llanganda ko'chma, axloqiy-emosional ma'noni anglatadi. Masalan, "*origa tegdi*" iborasi fizik ta'sir emas, balki shaxsiy sha'nning tahqirlanishini bildiradi.

"Or-nomus" konsepti frazeologik birliklar orqali xalq tafakkurida shakllangan axloqiy me'yorlarni til sathida mustahkamlaydi. Frazeologik sinonimlar esa ushbu konseptning mazmuniy soylari va stilistik boyligini ko'rsatadi. Masalan, "*nomusini saqlamoq*", "*orini himoya qilmoq*", "*izzatini joyiga qo'yimoq*" bir-biriga sinonim bo'lib, har biri "or-nomus" tushunchasining turli emotsional va ijtimoiy qatlamlarini yoritadi. "Or-nomus" konsepti o'zbek tili frazeologiyasida lingvokulturologik birlik sifatida namoyon bo'lib, xalqning axloqiy dunyoqarashi, jamiyatdagi sha'n va izzat haqidagi qarashlarini tilda barqaror shakllarda ifodalaydi. Frazeologizmlar bu konseptni milliy tafakkur darajasida uzviy ravishda aks ettirib, o'zbek xalqining madaniy-milliy identitetining ajralmas qismiga aylanadi. Frazeologik sinonimlar tizimida "or-nomus" konsepti o'z ifoda variantlarini topgan. Masalan, "*nomusini saqlamoq*", "*orini himoya qilmoq*", "*izzatini joyiga qo'yimoq*" bir-biriga yaqin ma'noli bo'lsa-da, ularning stilistik bo'yqlari va obrazlilik darajasi turlicha.

O'zbek xalq maqollari tizimida "or-nomus" konsepti ko'p qirrali semantik maydonni tashkil etadi. U **axloqiy qadriyat, ijtimoiy me'yor, shaxsiy g'urur, jamoaviy hurmat va ma'naviy poklik** tushunchalarini birlashtiruvchi markaziy konsept sifatida namoyon bo'ladi. Har bir maqolada "or" insonni yomonlikdan tiyuvchi ichki kuch, "nomus" esa jamiyatdagi sha'n va obro'ni saqlovchi tashqi



qadriyat sifatida talqin etilgan. Shu bois, frazeologik tizimda “or-nomus” xalq mentalitetining eng qadimiy va barqaror ma’naviy asoslaridan biri bo‘lib qolmoqda. “Jonimgi fido qilsang qil, Nomusingni fido qilma”, “Yigitning moli bo‘lguncha ori bo‘lsin”, “Nomus-o‘limdan qattiq” kabi maqollar yuqoridagi fikrimizning yorqin namunasidir.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, o‘zbek frazeologik tizimida “or-nomus” konsepti o‘zining ko‘p qirrali, tahliltalab ekanligi bilan doim tilshunoslik markazida turadi. Frazeologik tizimning turli birliklarida “or-nomus” konseptining semantik va pragmatik tahlili ishonlarga xos ijtimoiy xususiyatlar, xususan, vijdon, insof, nomusni saqlash, oriyatli bo‘lish kabi tahlillarni namoyon qiladi. Bugungi kun tilshunosligida “or-nomus” konseptining semantik-pragmatik tahlili tilshunoslikdagi tahlil qilinishi kerak bo‘lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi va ushbu maqolada bu tahlil qisman o‘z isbotini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Т. Алимардонов. Эркинлик рухи. “Nishon Noshir” нашриёти. –Т.: 2015. - Б. 160.
2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B.78-79.
3. X.Narxodjayeva. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi. Monografiya. “Ilm-fan-ma’naviyat” nashriyoti. –Qarshi, 2024.
4. G.Yuldosheva. Tilshunoslikda “konsept” kategoriyasi: nazariy qarashlar va yondashuvlar. (ilmiy maqola) Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi11.05.2025
5. http://navoi.natlib.uz:8101/uz/xazoyin_ul_maoniy_favoyid_ul_kibra_oltinchi_tom/te_harfining_torogjarlarining_tomoshosi_favoyiddin/

